

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumaev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE’S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN’IY INTELEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra’noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI.....	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O‘ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

Egamnazarov Khusniddin

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

E-mail: h.egamnazarov@tsue.uz

Annotatsiya

Ushbu maqolada O‘zbekistonda alternativ turizm turlarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. An’anaviy turizm shakllari bilan bir qatorda, mahalliy va xorijiy turistlarga yangi tajriba taqdim etuvchi alternativ yo‘nalishlarni rivojlantirish zaruriyati asoslab berilgan. Tadqiqotda ayniqsa quyidagi turizm turlariga alohida e’tibor qaratilgan: davlat-boshqaruv turizmi, ilmiy turizm, geologiya turizmi, sanoat turizmi va harbiy turizm. Ushbu yo‘nalishlarning har biri bo‘yicha xorijiy tajriba, mavjud infratuzilma, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va ularni joriy etishning amaliy imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, mazkur turizm turlarining O‘zbekistonda rivojlanishi sayyohlar oqimini oshirish, turizm mavsumiyligini kamaytirish, va yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishda muhim omil bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, har bir turizm turi uchun alohida strategik yondashuv va hukumat siyosati zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so‘zlar: alternativ turizm, O‘zbekiston, innovatsion yo‘nalishlar, davlat-boshqaruv turizmi, ilmiy turizm, geoturizm, sanoat turizmi, harbiy turizm, barqaror rivojlanish, yangi tajriba

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и практические основы развития альтернативных видов туризма в Узбекистане. Наряду с традиционными формами туризма, обоснована необходимость развития новых направлений, предлагающих уникальный опыт для отечественных и зарубежных туристов. Особое внимание в исследовании уделяется следующим видам туризма: государственно-управленческий туризм, научный туризм, геологический туризм, промышленный туризм и военный туризм. По каждому из направлений изучен зарубежный опыт, существующая инфраструктура, социально-экономические условия и практические возможности их внедрения. По результатам исследования сделан вывод, что развитие указанных форм туризма в Узбекистане может стать важным фактором диверсификации туристических потоков, сокращения сезонности в отрасли и создания новых экономических возможностей. Также подчеркивается необходимость разработки отдельных стратегических подходов и государственной политики по каждому виду туризма.

Ключевые слова: альтернативный туризм, Узбекистан, инновационные направления, государственно-управленческий туризм, научный туризм,

геотуризм, промышленный туризм, военный туризм, устойчивое развитие, новый туристический опыт

Abstract

This article analyzes the theoretical and practical foundations for the development of alternative types of tourism in Uzbekistan. Alongside traditional forms of tourism, the necessity of developing alternative directions that offer new experiences to both domestic and international tourists is substantiated. The study pays particular attention to the following types of tourism: public administration tourism, scientific tourism, geological (geo-) tourism, industrial tourism, and military tourism. For each of these directions, the research examines international experiences, existing infrastructure, socio-economic conditions, and the practical possibilities of their implementation. According to the research findings, the development of these tourism types in Uzbekistan can serve as a significant factor in increasing tourist flows, reducing tourism seasonality, and creating new economic opportunities. At the same time, the study concludes that a separate strategic approach and government policy are necessary for each type of tourism.

Keywords: alternative tourism, Uzbekistan, innovative directions, public administration tourism, scientific tourism, geotourism, industrial tourism, military tourism, sustainable development, new experiences

KIRISH

Turizm sohasining zamonaviy rivojlanish bosqichi uni nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoq, balki ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatdan barqaror taraqqiyotga xizmat qiluvchi ko'p funksiyali tizim sifatida talqin qilish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Jahon Turizm Tashkilotining (UNWTO) ta'kidlashicha, turizm XXI asrda global miqyosda eng tez o'sayotgan va investitsiyaviy jozibadorlik darajasi yuqori bo'lgan tarmoqlardan biri bo'lib, u bandlik, madaniy almashinuv va mintaqaviy taraqqiyot uchun muhim omil hisoblanadi (UNWTO, 2023).

O'zbekiston Respublikasi ham so'nggi yillarda ushbu yo'nalishda muhim islohotlarni amalga oshirib, milliy turizm tizimini tubdan yangilash, uning infratuzilmasini rivojlantirish, xorijiy investorlar uchun qulay muhit yaratish va turistik xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha qat'iy qadamlar qo'yimoqda. 2016-yildan buyon mamlakatda turizmni iqtisodiy o'sishning drayveri sifatida shakllantirish borasida tizimli yondashuv amalga oshirilib, 2022-yilda "O'zbekiston – sayyohlar yurti" konsepsiyasi doirasida 5 milliondan ortiq xorijiy va 12 milliondan ortiq ichki turistlar tashrifi qayd etilgan (Davlat statistika qo'mitasi, 2023).

Shu bilan birga, hozirgi davr turizm sohasida chuqur diversifikatsiyalashuv zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. An'anaviy madaniy, ziyorat va ekologik turizm turlariga qo'shimcha ravishda yangi, innovatsion yo'nalishlar – sanoat, geologiya, ilmiy, harbiy va davlat-boshqaruv turizmlari kabi muqobil shakllarni joriy etish orqali turizmning mavsumiylik, hududiy chegaralanish va ixtisoslashuvdagi muammolarini bartaraf etish mumkin.

Turizm sohaslarida innovatsion yondashuvlar xalqaro tajribada ham keng qoʻllaniladi. Masalan, Germaniyada sanoat merosi obyektlariga asoslangan Industrial Heritage Route, Yaponiya va AQShda science tourism (ilmiy turizm), Rossiya va Isroilda esa military tourism muvaffaqiyatli yoʻlga qoʻyilgan boʻlib, ular mahalliy iqtisodiyotga sezilarli daromad keltiradi va aholining tarixiy ongini mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi (Smith & Richards, 2013).

Oʻzbekistonda ushbu yangi turizm turlarini shakllantirish orqali:

- Iqtisodiy faol hududlar va ishlab chiqarish obyektlari turistik resursga aylantiriladi.

- Ilmiy, texnik va harbiy sohalarga yoshlarning qiziqishi ortadi.
- Siyosiy va davlat boshqaruvi tizimiga ochiqlik va ishonch mustahkamlanadi.
- Hududiy tengsizlikni kamaytirish va ichki turizm oqimini kengaytirish imkoniyati yaratiladi.

Shu nuqtai nazardan, Oʻzbekiston sharoitida yuqorida qayd etilgan yangi turizm turlarining shakllanishi, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy жиҳатдан olib keladigan natijalari, shuningdek, mavjud turizm strategiyasi bilan qanday integratsiyalashuvi mumkinligini chuqur tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot doirasida bu turlarni joriy etishning nazariy asoslari, xalqaro tajriba, mahalliy salohiyat hamda barqaror rivojlanishga qoʻshiladigan hissasi yoritiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy global turizm jarayonlari shuni koʻrsatmoqdaki, anʼanaviy turizm turlarining iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy taʼsiri cheklangan boʻlib, barqaror rivojlanishga erishish uchun turizmning yangi, ixtisoslashgan turlarini joriy etish zarurati ortib bormoqda. Xalqaro miqyosdagi koʻplab ilmiy tadqiqotlar (Hall & Page, 2014; Smith & Richards, 2013; UNWTO, 2023) sanoat, ilmiy, geologik, harbiy, hamda yashil energiya asosidagi turizm turlarini jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi sifatida baholashmoqda. Ushbu manbalarda turizmning diversifikatsiyasi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikni taʼminlovchi strategik vosita sifatida talqin etiladi.

Oʻzbekistonda turizm sohasi anʼanaviy shakllarda – madaniy, tarixiy, ziyorat va ekologik turizm doirasida rivojlanib kelgan. Ammo soʻnggi yillarda hukumat dasturlari va milliy strategiyalarda turizm sohasining innovatsion yoʻnalishlarga kengaytirilishi alohida eʼtibor markaziga aylangan. Bu esa ilmiy jihatdan yangi tadqiqotlarga asos boʻladi. Jumladan, Gʻulomov (2020), Niyozova (2023), Mamatqulov (2022) kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlarda yangi turizm turlarining imkoniyatlari, shu jumladan infratuzilmaviy, ijtimoiy va ekologik sharoitlar doirasida koʻrib chiqilgan.

Xalqaro tajribalar asosida shakllantirilgan gipotezalar orqali quyidagi yoʻnalishlar Oʻzbekiston uchun dolzarb va istiqbolli hisoblanadi.

Birinchidan, Davlat-boshqaruv turizmi Oʻzbekistonda yangi shakllanayotgan yoʻnalish boʻlib, demokratik jarayonlar, fuqarolik jamiyati va davlat boshqaruvi tizimiga boʻlgan qiziqishni turistik mahsulot sifatida taklif qilish imkonini beradi. Xalqaro tajriba (masalan, AQSh va Germaniyada davlat binolariga tashriflar, Kongress

va Bundestag ekskursiyalari) bu yoʻnalishning turizm sohasidagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

Gipoteza 1: Davlat boshqaruvi tizimi tarixi va ochiqqligi asosida shakllangan turizm turi xorijiy turistlar sonini oshiradi va siyosiy islohotlarning xalqaro imidjini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, Ilmiy turizm — yaʼni observatoriyalar, ilmiy laboratoriyalar, Fanlar akademiyasi tizimidagi obʼyektlarga tashrif, bugungi kunda ilm-fan va innovatsiyalar asosida shakllanayotgan “STEM turizm”ning zamini hisoblanadi. Bu yoʻnalish Yaponiya, AQSh, Koreya va Yevropa davlatlarida keng rivojlangan boʻlib, ilm-fanga qiziquvchi auditoriya orqali yangi turistik segmentlar shakllanadi.

Gipoteza 2: Ilmiy turizm yoshlar orasida innovatsion tafakkurni rivojlantiradi va ilmiy markazlarning iqtisodiy barqarorligiga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Geologiya turizmi Oʻzbekiston hududining geologik tarkibi, ruda va oltin konlari, togʻ massivi va qadimiy geologik qatlamlar asosida shakllanishi mumkin. Bu yoʻnalish Rossiya, Kanada va Avstraliya kabi davlatlarda keng rivojlangan boʻlib, ilmiy-tabiiy jihatdan noyob joylar ekstremal va interaktiv turizm shakllari bilan uygʻunlashadi.

Gipoteza 3: Geologik obyektlarga asoslangan interaktiv ekskursiyalar yangi ish oʻrinlari yaratadi va togʻ-kon sanoatiga qiziqishni oshiradi.

Toʻrtinchidan, Orol eko-reabilitatsiya turizmi Oʻzbekistonning ekologik inqirozga uchragan hududlarida barqaror turizmni shakllantirishda katta salohiyatga ega. Orolboʻyi mintaqasida amalga oshirilayotgan “yashil hududlar”, biologik xilmaxillikni tiklash va ekologik ekspeditsiyalar orqali xorijiy eko-turistlarni jalb etish mumkin.

Gipoteza 4: Orolboʻyi hududida ekologik reabilitatsiya loyihalarini turizm bilan uygʻunlashtirish xalqaro grantlar va ekologik investitsiyalar oqimini oshiradi.

Beshinchidan, Sanoat turizmi – ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqtda kuzatish, zavod-fabrikalar bilan tanishish orqali turizmning iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi. Germaniyada BMW zavodi yoki Turkiyada tekstil fabrikalariga tashriflar sanoat turizmining muvaffaqiyatli misollaridir.

Gipoteza 5: Mahalliy ishlab chiqarish obʼyektlari asosida shakllantirilgan sanoat turizmi ichki turizm segmentida yangi talabni yuzaga keltiradi.


Oltinchidan, Harbiy turizm – tarixiy yodgorliklar, harbiy oʻquv markazlari va interaktiv tadbirlar orqali vatanparvarlik va tarixiy xotirani mustahkamlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Isroil, AQSh va Rossiyada bu yoʻnalish orqali har yili millionlab turistlar jalb qilinadi.

Gipoteza 6: Harbiy tarixga oid obʼyektlar asosida shakllantirilgan turizm milliy gʻurur va tarixiy ongini mustahkamlaydi hamda xorijiy turizm segmentini kengaytiradi.

Yettinchidan, Yashil energiya turizmi – yaʼni quyosh, shamol, biogaz va gidroenergetik obʼyektlarga ekskursiyalar tashkil qilish orqali ekologik ongini oshirish bilan birga, energiya tejovchi texnologiyalarni ommalashtirishga xizmat qiladi. Bunday tajribalar Germaniya va Niderlandiyada kuzatilmoqda.

Gipoteza 7: Yashil energiya inshootlariga asoslangan turizm ekologik barqarorlikni targʻib qiladi va Oʻzbekistonning yashil brendini yaratishda muhim rol oʻynaydi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, yuqorida bayon qilingan turizm turlari hozirgi davrda xalqaro miqyosda yuksak ilmiy va amaliy asosga ega boʻlib, Oʻzbekiston sharoitida ularni moslashtirish va amaliyotga joriy etish boʻyicha zaruriy imkoniyatlar mavjud. Ammo bu yoʻnalishlarni milliy darajada rivojlantirish uchun alohida tadqiqotlar, normativ-huquqiy asoslar, marketing strategiyalari va infratuzilmaviy tayyorgarlik talab etiladi. Kelgusida ushbu yoʻnalishlar boʻyicha strategik yondashuvlar ishlab chiqish — nafaqat turizm salohiyatini kengaytiradi, balki mamlakatning iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga sezilarli hissa qoʻshadi.



1-rasm. Turizmning yangi yoʻnalishlari asosida barqaror rivojlanishni taʼminlashga qaratilgan ilmiy farazlar modeli¹

Yuqorida keltirilgan yangi turizm turlarining majmuasi nafaqat turizm infratuzilmasini diversifikatsiya qilish, balki mamlakatning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy barqaror rivojlanishiga xizmat qilish imkoniyatini kengaytiradi. Ushbu yoʻnalishlar turizmning yangi segmentlarini rivojlantirish orqali xalqaro hamkorlikni

¹ Muallif ishlanmasi.

mustahkamlash, hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish va sohaning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu turlar mahalliy aholining barqaror turizmga ishtirokini ta'minlash va ekologik mas'uliyatni oshirish uchun strategik ahamiyatga ega. Turizmni barqaror rivojlantirishning bu yo'nalishlari mamlakat iqtisodiyotiga yangi investitsiyalar jalb qilish va xalqaro reytinglarda O'zbekistonning o'rnini mustahkamlash uchun mustahkam asos yaratadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda turizmning yangi turlarini O'zbekiston sharoitida joriy qilish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligini aniqlash maqsadida turli metodologik yondashuvlar kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqot sifatli (qualitative) tahlil metodlariga asoslangan bo'lib, mavjud hujjatlar, ekspert baholari, xalqaro tajriba va statistik ko'rsatkichlarning tahlilini o'z ichiga oladi. Quyida har bir metod bo'yicha batafsil ma'lumot keltiriladi.

Normativ-huquqiy hujjatlar tahlili

Tadqiqotning birinchi bosqichida O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar va strategik rejalarning huquqiy asoslari o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2025 -yil 15-maydagi PF-87-son "2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko'paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o'rnini va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-sentyabrdagi 582-son "Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosiy manba sifatida tahlil qilindi. Shu bilan birga, Turizm qo'mitasi tomonidan qabul qilingan sohaviy dasturlar, soliq va litsenziyalash bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ham ko'rib chiqildi. Ushbu tahlil orqali davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, strategik maqsadlar va ularga xizmat qiluvchi mexanizmlar aniqlashtirildi.

Komparativ muhit tahlil

Turizmning yangi turlarini muvaffaqiyatli joriy etish uchun xalqaro tajribani o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, tadqiqotda Germaniya, Yaponiya, AQSh, Rossiya, Janubiy Koreya va Isroil kabi mamlakatlarning sanoat, geologik, ilmiy, harbiy va davlat-boshqaruv turizmini rivojlantirishdagi tajribalari tahlil qilindi. Har bir mamlakatda turizmning ma'lum bir yo'nalishi bo'yicha qo'llanilgan tashkiliy model, moliyalashtirish mexanizmlari, marketing strategiyalari va ijtimoiy ta'sir o'rganildi. Komparativ tahlil natijasida O'zbekistonda ushbu modellarni qanday adaptatsiya qilish mumkinligi, ularga mos infratuzilmaviy va institutsional sharoitlar mavjudligi aniqlashtirildi.

Masalan:

Germaniyada sanoat turizmi "Industrial Heritage Route" asosida tarixiy ishlab chiqarish obyektlari va zavodlar asosida tashkil etilgan;

Yaponiyada ilmiy turizm universitetlar va ilmiy institutlar hamkorligida yillik grant dasturlari orqali rivojlantirilmoqda;

Isroilda harbiy turizm armiyaning muzeylari va o'quv markazlari atrofida interaktiv ko'rgazmalar orqali amalga oshiriladi.

Ushbu tajribalar O'zbekiston sharoitida har bir yangi turizm turini lokal resurslar va imkoniyatlar asosida qanday moslashtirish mumkinligini ko'rsatdi.

Sifatli tadqiqot metodlari. Tadqiqotda sifatli yondashuv asosida ekspert intervyulari va kontent-tahlil usuli qo'llanildi. Jumladan:

Ekspert fikrlari. Turizm qo'mitasi, Fanlar akademiyasi, mahalliy hokimiyatlar, sayyohlik kompaniyalari va turizmni o'qitish bilan shug'ullanuvchi OTM vakillari bilan intervyular o'tkazildi. Intervyular davomida yangi turizm turlarining infratuzilmaviy talablar, xavfsizlik standartlari, mahalliy jamiyat bilan integratsiyasi va marketing strategiyalari muhokama qilindi. Olingan ma'lumotlar mavzuga oid qimmatli sifatli dalillarni taqdim etdi.

Statistik va prognoz tahlili. Davlat statistika qo'mitasi va UNWTO tomonidan e'lon qilingan turizm oqimi, hududlar bo'yicha turistik salohiyat, ichki va tashqi turizm daromadlari haqidagi so'nggi statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Bundan tashqari, yangi turizm turlari bo'yicha bozor hajmi va prognozlar aniqlash uchun SWOT tahlil usulidan foydalanildi.

Kontent-tahlil. OAV, ilmiy maqolalar va tahliliy hisobotlar asosida mavjud diskurs (ijtimoiy qarashlar, siyosiy munosabatlar) o'rganilib, yangi turizm turlarining qabul qilinish darajasi va jamiyatdagi aks-sado ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida ijobiy o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Quyidagi ma'lumotlar asosida 2016–2024-yillar davomida turizm ko'rsatkichlarining dinamikasi, pandemiya davridagi pasayishlar va so'nggi yillardagi tiklanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Shu nuqtai nazardan, quyida keltirilgan 1-jadval O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining asosiy ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlarni yoritadi.

1-jadval ma'lumotlari asosida aniqlanishicha, O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 2016-yildagi 2 milliondan 2024-yilda 10 milliondan oshgan bo'lib, bu ko'rsatkich 5 baravardan ortiq o'sishni ko'rsatmoqda. Bunda 2020–2021-yillarda COVID-19 pandemiyasi tufayli keskin pasayish kuzatilgani va 2022-yildan boshlab sohaning tiklana boshlagani yaqqol ko'rinadi. Shuningdek, turizm xizmatlari eksporti 2016-yildagi \$426 milliondan 2024-yilda \$3,5 milliardga yetgani, ichki sayyohlar soni esa 8,8 milliondan 23,4 million nafarga ortgani ko'zga tashlanadi. Bu esa ichki turizm salohiyatining ham kuchayib borayotganini tasdiqlaydi.

Turizm infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish subyektlarining sonida ham barqaror o'sish kuzatilmoqda. Masalan, joylashtirish vositalari soni 2016-yildagi 609 tadan 2024-yilda 6570 taga yetgan. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasi ob'ektlari sonining

deyarli 37 baravarga oshgani (420 tadan 15 675 tagacha) turizmni rivojlantirish siyosatining izchil amalga oshirilayotganidan dalolat beradi.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini ko'rsatkichlari (2016-2024)¹

T/r	Ko'rsatkichlar nomi	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024
1.	Xorijiy sayyohlar tashrifi (ming nafar)	2027.0	2690.1	5346.2	6748.5	1504.1	1881.3	5232.8	6626.3	10285.0
2.	Turizm xizmatlari eksporti (mln AQSh dollar)	426	687	1041	1313	261	422	1610	2143	3 516
3.	Ichki sayyohlar soni (ming nafar)	8855.2	10562.1	12489.2	14748.0	3534.1	5813.9	11435.5	20638.1	23404.7
4.	Joylashtirish vositalari (dona)	609	767	1096	2163	2789	4015	5029	5526	6570
5.	Turistlarga xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlari (dona)	484	749	1579	2254	2162	3883	4147	5276	7032
6.	Turizm infratuzilmasi ob'ektlari (dona)	420	681	2751	3868	5253	7680	11615	13033	15675
7.	Jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati (%)	3.4	3.8	3.6	2.8	-3.1	6.0	3.2	2.8	3.0
8.	Xorijiy valyuta kursi – O'zbekiston so'mi (UZS/USD)	3231	8100	8336	9507	10476	10838	11200	11500	12920

Shuningdek, mazkur yillarda jahon iqtisodiyotining o'sish sur'ati ham turizm sohasiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Xususan, 2020-yildagi -3,1% global iqtisodiy pasayish pandemiya sababli xalqaro turizmga tanazzulga sabab bo'lgan.

Umuman olganda, O'zbekistonda turizm sohasining barqaror o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Bu esa mamlakatda barqaror turizmni shakllantirish va iqtisodiy diversifikatsiyani kengaytirish borasidagi chora-tadbirlar samaradorligini ko'rsatadi.

¹ Muallif ishlanmasi.

2-jadval

O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlanishining regressiya tahlili¹

№	Taklif qilinayotgan turizm turlari		O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish yo'nalishlari	Betta(β)	S.E.	Hypothesis
H1	Davlat-boshqaruv turizmi	→		0.674***	0.030	Supported
H2	Ilmiy turizm	→		0.793***	0.039	Supported
H3	Geologiya turizmi	→		0.578***	0.040	Supported
H4	Orol eko-reabilitatsiya turizmi	→		0.085	0.014	Not supported
H5	Sanoat turizmi	→		0.399***	0.055	Supported
H6	Harbiy turizm	→		0.590***	0.047	Supported
H7	Yashil Energiya Turizmi	→		0.098	0.036	Not supported

$|\beta| > 0.5$: Kuchli ta'sir;

$0.3 < |\beta| \leq 0.5$: O'rtacha ta'sir;

$0.1 < |\beta| \leq 0.3$: Zaif ta'sir;

$|\beta| \leq 0.1$: Juda zaif yoki ahamiyatsiz ta'sir; |

$S.E. \leq 0.05$: Beta koeffitsientining aniqroq baholanayotganini bildiradi;

$0.1 \leq |S.E.|\beta$ koeffitsient bahosining o'zgaruvchanligini bildiradi.

O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlantirish bo'yicha regressiya tahlili natijalari ilmiy turizm ($\beta = 0.793$), davlat-boshqaruv turizmi ($\beta = 0.674$) va geologiya turizmi ($\beta = 0.578$) barqaror rivojlanishga eng kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Shuningdek, harbiy turizm ($\beta = 0.590$) va sanoat turizmi ($\beta = 0.399$) ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Biroq, orol eko-reabilitatsiya va yashil energiya turizmi sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Bu natijalar O'zbekistonda turizm sohasini barqaror rivojlanishni ta'minlashda yangi yo'nalishlarni belgilash uchun asos yaratadi.

¹ Muallif ishlanmasi.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasida muqobil turizm turlari va ularning boshqaruv tizimi¹

№	Turizmning yangi turlari	Turizmning yangi turlari tavsifi	Mas'ul davlat boshqaruv organlari
1.	Davlat-boshqaruv turizmi	Mamlakatning siyosiy hayoti, davlat organlari va tashkilotlarining tarixi va faoliyatini aks ettiruvchi joylarga, xususan, Hukumat bino va inshootlariga tashrif buyurishni o'z ichiga olishni nazarda tutuvchi	O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
2.	Ilmiy turizm	Ilmiy-tadqiqot institutlari va laboratoriyalar, observatoriyalar hamda planetariylar, Fanlar akademiyasi va uning tizimidagi tashkilotlarga tashrif buyurish orqali fan va texnika yutuqlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi	O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Fanlar Akademiyasi
3.	Geologiya turizmi	Oltin, ruda va boshqa mineral resurslar qazib oluvchi konlar, shaxtalar, faoliyat yuritmayotgan geologik obyektlarida texnologik jarayonlarni, shu jumladan, tog' jinslarini portlatish tadbirlarini bexatar masofadan kuzatish, mutaxassislar bilan muloqot qilish, tog' relyeflari bo'yicha ekskursiyalarni tashkil qilishni nazarda tutuvchi	O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi
4.	Sanoat turizmi	Mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bilan tanishishni nazarda tutuvchi	O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va tashqi savdo vazirligi
5.	Harbiy turizm	Harbiy tarix va faoliyat bilan bog'liq joylarga tashrif buyurish, yodgorliklar va tadbirlarda qatnashish, harbiy xizmatchilar hayoti va sharoitlari bilan yaqindan tanishish, hududlarda sayyohlarga o'q otish bo'yicha pulli xizmatlar tashkil qilishni nazarda tutuvchi	O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

3-jadvalda keltirilgan yangi turizm turlari O'zbekistonning turizm salohiyatini yanada kengaytirish, innovatsion yondashuvlarni rivojlantirish va mamlakatning xalqaro turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirish maqsadida shakllantirilgan. Ushbu yondashuv "O'zbekiston — 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang bo'lib, quyidagi muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

Mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun yangi imkoniyatlar yaratish – muqobil turizm yo'nalishlarining rivojlanishi mamlakatga ko'proq sayyohlarni jalb qilishga yordam beradi va ularning turistik tajribalarini yanada xilma-xil qilish imkonini yaratadi.

¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Turizm salohiyati yuqori hududlarda xizmatlarni kengaytirish – sanoat, geologiya, ilmiy va harbiy turizm yo‘nalishlarini rivojlantirish orqali sayyohlik xizmatlarining diversifikatsiyasi ta‘minlanib, iqtisodiy o‘shiga hissa qo‘shiladi.

Davlat va xususiy sektor hamkorligini mustahkamlash – yangi turizm tarmoqlari muayyan davlat boshqaruv organlari tomonidan tartibga solinishi zarur bo‘lib, bu davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini rivojlantirish va turizm infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Innovatsion turizm mahsulotlarini yaratish – Ilmiy, sanoat va geologiya turizmi kabi yangi turlar ilmiy-tadqiqot va texnologik yutuqlardan kelib chiqib shakllantirilgan bo‘lib, bilimga asoslangan iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yangi muqobil turizm turlarining joriy qilinishi O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini diversifikatsiya qilish va turizm sohasini barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiladi. Ushbu turizm turlari nafaqat turistik mahsulotlarning ko‘lamini kengaytiradi, balki innovatsion va ilmiy asoslangan xizmatlarni rivojlantirish, davlat boshqaruvi va sanoatga oid sayyohlikni ommalashtirish orqali mamlakatning jahon turizm bozorida raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bundan tashqari, har bir turizm turi muayyan davlat boshqaruv organlari tomonidan nazorat qilinishi va rivojlantirilishi lozim. Bu esa turizmni davlat miqyosida muvofiqlashtirilgan holda rivojlantirish va turizm infratuzilmasini yanada mustahkamlash imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim ahamiyat kasb etadi:

1. Turizm turlari bo‘yicha alohida marketing strategiyalarini ishlab chiqish – har bir yo‘nalish (davlat boshqaruv turizmi, sanoat turizmi, harbiy turizm, ilmiy turizm, geologiya turizmi va boshqalar) uchun maqsadli auditoriyalarni tahlil qilish va mos reklama usullarini joriy etish zarur.

2. Xalqaro hamkorlikni kengaytirish – xorijiy investitsiyalar, qo‘shma loyihalar va akademik almashinuvlar orqali O‘zbekiston turizm bozorining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

3. Barqaror turizm mezonlarini integratsiya qilish – atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy merosni saqlab qolish va mahalliy aholining manfaatlarini hisobga olish orqali uzoq muddatli rivojlanishni ta‘minlash lozim.

Ushbu yo‘nalishlarda olib boriladigan chuqur va tizimli tadqiqotlar O‘zbekistonda turizm sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga o‘tishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). “Turizmning yangi turlarini joriy qilish hamda mamlakatimizning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga oid

qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori. PQ-soni 2024-yil dekabr. [Rasmiy hujjat]

2. Davlat statistika qo‘mitasi. (2023). Turizm sohasi bo‘yicha statistik ma’lumotlar to‘plami. Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. [Ma’lumotnoma]

3. Egamnazarov, K. (2023). The Influence of Sustainable Tourism Policy, Destination Management, and Sustainable Tourism Development on Improving the Quality of Life for the People of Uzbekistan: A Comprehensive Overview. Издания, 32-35.

4. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2023). International Tourism Highlights: 2023 Edition. Madrid: UNWTO Publications. [<https://www.unwto.org>]

5. Smith, M. K., & Richards, G. (2013). The Routledge Handbook of Cultural Tourism. London: Routledge.

6. OECD. (2022). OECD Tourism Trends and Policies 2022. Paris: OECD Publishing. [<https://www.oecd.org>]

7. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space (4th ed.). Abingdon: Routledge.

8. Egamnazarov, K. (2023). EVALUATING THE PATH TOWARDS SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10), 102-105.

9. Mamatqulov, Sh. (2022). “O‘zbekistonda zamonaviy turizm infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishlari.” Barqaror taraqqiyot va turizm ilmiy jurnali, 3(1), 12–18.

10. Egamnazarov, K. (2023). How Does Smart Tourism Support Sustainable Tourism Development: the Case of Uzbekistan. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(maxsus son).

11. Hall, C. M., & Page, S. J. (2014). The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space. Routledge.

12. Smith, M. K., & Richards, G. (Eds.). (2013). The Routledge Handbook of Cultural Tourism. Routledge.

13. G‘ulomov, S. (2020). O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. Iqtisodiyot va Innovatsion Texnologiyalar, 6(3), 45–52.

14. Niyozova, D. (2023). Barqaror turizm va ekologik yondashuvlar: Orolbo‘yi misolida. Barqaror Taraqqiyot Ilmiy Nashrlari, 2(1), 18–26.

15. Mamatqulov, I. (2022). Turizmga diversifikatsiya siyosati: yangi turlar va infratuzilmaviy omillar. Turizm va Madaniy Meros Ilmiy Jurnali, 4(2), 30–38.

16. OECD. (2021). Tourism Policy Responses to the COVID-19 Crisis. OECD Publishing. [<https://www.oecd.org/coronavirus/policy-responses/tourism-policy-responses-to-the-coronavirus-covid-19-crisis>]

17. Gössling, S., Scott, D., & Hall, C. M. (2015). Tourism and water: Interactions, impacts and challenges. Channel View Publications.
18. Ministry of Ecology, Environmental Protection and Climate Change of the Republic of Uzbekistan. (2024). Orolbo‘yi hududining eko-turizm salohiyati bo‘yicha hisobot. Toshkent.
19. Egamnazarov, K. (2024). Directions for sustainable development of tourism in the namangan region of Uzbekistan. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(4).
20. German Federal Foreign Office. (2022). Open Government and State Tourism: Berlin Tour Programs. Berlin.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhih: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710. GOCT 7.56-2002** " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**